

## **AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING KASBIY FAOLIYATDA QO'LLANILISHI**

**Mirzayeva Durdonaxon Ilhomjon qizi**

ADPI filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1- kurs talabasi

**Mamasodiqova Saidaxon Soyibjon qizi**

Ilmiy rahbar:

ADPI Informatika va Aniq fanlar kafedrasи o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Axborot texnologiyalarning kasbiy faoliyatda qo'llanilishi hozirgi kunda qanchalik ahamiyatli ekanligi nazarda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot texnologiyalar, kompyuter, savodxonlik, tarmoqlar, prinsip, media savodxonlik, dasturlash, salohiyat, kompyuter texnologiyalari, internetdan samarali foydalanish, raqamli texnologiyalar.

### **KIRISH**

XXI asr axborot texnologiyalar asri hisoblanadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasi respublikamizning rivojlanishida muhim o'rinn tutib kelmoqda. Hozirga kelib dunyoda shiddat bilan tez rivojlanayotgan axborot texnologiyalari juda keng tarmoqlanadi. Axborot lotin tilidan olingan bo'lib, "informatio" – tushuntirish, bayon qilish degan ma'nolarni bildiradi. Axborot bu to'plangan, qayta ishlangan va izohlangan, foydalanish uchun qulay ko'rinishda taqdim etilgan ma'lumotlar hisoblanadi.

"Ta'limda axborot texnologiyalari" axborotlarni kompyuter yordamida tasvirlash, saqlab turish, uzatish va ishlov berish usullarini o'rganuvchi fan sifatida e'tirof etilgan. Axborot texnologiyalarining tarmoqlaridan keng tarqagan mahsuli bu kompyuterlar.

Chunki, kompyuterlarning kasbiy faoliyatda qo‘llanishi ham juda muhim. Avvalombor, axborot texnologiyalarning kasbiy faoliyatda qo‘llanishi o‘quvchilarda kompyuter savodxonligi, o‘qib izlanish va keng fikrlash uchun muhim vositalardan biri demakdir. Hozirgi kunda yoshlarga axborot texnologiyaning keng qamrovli tarmoqlaridan kompyuterni ishlatish prinsiplari, media savodxonlik, dasturlash shu kabi bir qator muhim bo‘lgan yo‘nalishlar o‘rgatilmoqda.

Bu, o‘z navbatida, yosh avlodning zamonaviy bilim olishi, o‘quvchilarga sifatli va puxta bilim berish salohiyatini oshirishi bilan ahamiyatlidir. Aslida ham axborot texnologiyalarning kasbiy faoliyatda qo‘llanishining asli maqsadi ham shundadir. Agar o‘quvchi kelajakda kompyuterni yaxshi ishlatishni bilmasa u faoliyati davomida qiyinalishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi kunda texnologiya fanidan boxabar bo‘lishi kerak deb bekorga aytilgani yo‘q. Hozirgi kunda har bir soha uchun axborot texnologiya kerak. Masalan, meni sohamda oddiy bir misol, o‘quvchilarga sifatli dars o‘tishimga yaqindan yordam beradi, bu degani, turli xil ko‘rgazmali qurollar, qiziqarli o‘yinlar qilishimiz mumkin. Bank xodimlari uchun ham eng kerakli bo‘lgan narsa bu kompyuterlardir. Mana shu, aslida, axborot texnologiyaning kasbiy faoliyatda qo‘llanishi. Men hozir atigi, ikkita kasb egalari uchun kerak bo‘ladigan axborot texnologiyasini aytdim. Lekin hozirda hamma kasb egalari uchun kerak bo‘lgan axborot texnologiyasi bugungi kundagi eng muhim omil hisoblanadi.

## XULOSA

Prezidentimiz tomonlaridan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning 3-tashabbusi doirasida Aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan, shuningdek, ularni axborot texnologiyalari sohasida tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish maqsadida respublika bo‘yicha 102 ta Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari tashkil etildi.

Shundan ham ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda axborot texnologiyalarning kasbiy faoliyatda qo‘llanishi juda ham muhim hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi

2006-2023

2. Ta'limda axborot texnologiyalari (o'quv qo'llanma)

SH.X.YO'LCHIYEV. S.S.MAMASODIQOVA.